

OTASHNAFAS SHOIR USMON NOSIR

Jo'rayeva Oygul Muhammadjon qizi

Namangan davlat chet tilar instituti

PER-AU-23 talabasi

Annotatsiya:

Otashnafas shoir Usmon nosir hayoti va uning ijodi, hayotdagi o'rni, she'rlaridagi ma'nolar, uning bolaligi haqida maqolada keltrilgan.

Kalit so'zlar: Usmon Nosir, Otashnafas, she'r, hayoti, uning, ijodi, kechada

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining binosi katta zalida hali 25 yoshga to'lmagan shoirning ijodiy kechasi bo'lgan. Kechada so'zga chiqqan notiqalar bir og'izdan uni "hozirgi o'zbek she'riyatining quyoshi" deb ta'riflagan edi. Vaholanki, o'sha vaqtda o'zbek she'riyati bo'stonida Oybek, G'afur G'ulom, Hamid Olimjon singari mashhur shoirlar ijodi barq urib turgan. Usmon Nosir esa yangilanib borayotgan o'zbek she'riyati osmonida bamisoli porloq yulduz misoli paydo bo'ldi. Shu yillarda o'zbek she'riyati eshigini chertib kirayotgan Shuhrat, Hamid G'ulom, Shukrullo, Turob To'la singari yosh shoirlar bu yulduz shu'lalaridan bahramand bo'lgan holda taniqli shoir va yozuvchilar bo'lib yetishdi. Ularni "Usmon Nosir maktabi"dan yetishib chiqqan shoirlar desak xato bo'lmaydi. Usmon Nosir hayotiga bolaligiga keladigan bo'lsak. Bilamizki yoshlikdan she'r yozish juda ham qiyin. Ammo hozirgi kunda ustozlarimiz orqali biz shaxsiy she'riy, badiiy, uslubiy kitoblarimizni chop etayabmiz. Har qanday shoir yoki yozuvchining bolalik va yoshlik yillari bo'ladi. Ulardan kamdan-kami shu faslda fikr va tuyg'u ifodasi ravon va maftunkor she'rlarni yozishga muvaffaq bo'ladi. Bunday "iligi to'q" she'rlarni yozish uchun yosh shoir yillab mashq qilishi, yozilgan o'nlab she'rlarini yirtib tashlab, ularda topolmagan ranglar, ohanglar, poetik obrazlarni yaratish malakasini egallashi lozim. Usmon Nosir ham dastlab aksar shoirlar umrining shunday bahoriy faslini boshidan kechirdi. U she'rdan she'rga, to'plamdan to'plamga shoir sifatida o'sib va shakllanib bordi. Shu davrda Firdavsiy va Navoiy, Pushkin va Lermontov, Cho'lpon va Oybek she'rlarini o'qib, ustoz shoirlardan she'r yozish madaniyatini mukammal o'rgandi. "Tug'ma iste'dodni, — deb yozgan edi - Abdulla Oripov "Usmon Nosir haqida so'z" degan maqolasida, — faqat stixiyadan iborat holat, deb tushunish noto'g'ridir. Haqiqiy qalb egasi o'z grajdanlik darajasini, bilim va quvvai hofizasini muttasil kengaytirgan holdagina tarix uchun zarur san'atkorga aylanishi mumkin. Biz bugun so'z yuritayotgan shoir Usmon Nosir tabiatning benihoya muruvvati tufayli dunyoga kelgan ana shunday iste'dod egasi edi". "Usmon Nosir deganda, — deb davom etadi A.Oripov, — biz kimni tushunamiz? U shunday iste'dod egasiki, bamisoli tekkan joyini kuydiruvchi olovdir... Usmon Nosir ulug' va abadiy she'riyatning diydasidan oqib ulgurmagan shabnamdir. U hali qahqahaga aylanmay lablarimizda manguga qotib qolgan nim tabassumdir". Mazkur ta'rif bundan

qariyb to‘qson yil avval yashab o‘tgan shoir hayoti, ijodi va taqdirini o‘zida ifodalagan, bizni o‘yga soladigan so‘zlar. Agar Usmon Nosir she‘riyatiga ularda ifodalangan falsafiy fikrlar asosida yondoshsak, shoir guvohi bo‘lgan va guvohi bo‘lmagan xushnudu fojiali voqealarning aks etganini ko‘ramiz. She‘riyat va boshqa san‘at turlaridan farqi shundaki shoir o‘zining tarixiy davr voqealariga, jamiyat va inson hayotidagi o‘zgarishlarga bo‘lgan munosabatini lirik qahramon obrazi orqali ifodalaydi.

Qahramon bamisoli hayotiy voqealardan qattiq ta’sirlanib, tilsiz qolgan shoirga tarjimonlik qiladi. Shoir lirik qahramon -obrazi orqali xatto o‘zi ko‘rmagan, tarixiy--memoriy kitoblardagi insoniyat tarixining dastlabki davrlaridagi dahshatli voqealardan dahshatga tushganini sezamiz. Shu ma’noda, Usmon Nosir she‘rlaridan birida bor-yo‘g‘i ikki yildan keyin o‘zi va zamondoshlari boshiga tushajak fojiali taqdirni bashorat qilgandek bo‘lib -tuyuladi menga.

Bu she‘r “Nil va Rim” deb ataladi. U bunday satrlar bilan boshlanadi:

Lampam yonur... Yaralangan qanotdek og‘ir
O‘y bosadi. Yuragimda go‘yo sel yog‘ir.
Qiyналaman. Tirishaman. Hushim parishon,
O‘tmish, hozir va kelajak ko‘rinur har on.

Qadimda osmon baravar piramidalarni, muhtasham haykallarni toshdan, marmardan, tilladan yasagan, Kleopatra singari malikalar uchun esa tilla va kumushdan hayratomuz zebu ziynatlarni ijod qilgan ustalar o‘sha davrning baxtsiz qullari edi. O‘sha davrning vallomatlari bu och va yalang‘och qullar mehnatini qadrlash u yoqda tursin, xatto yalang‘och sahnalarda ularning och yo‘lbarslar bilan jangini tomosha qilishni yaxshi ko‘rgan. Xatto ularning bahaybat hayvonlarga yem bo‘lishlarini tomosha qilib lazzatlanishgan.

Qarang, bir tomonda, shunday o‘yinlarni sevuvchi aslzodalar, ikkinchi tomonda — qullar...

To Minisdan Ramzesgacha, Ramzesdan nari,
Malika qiz Kleopatra hukmron davri.
Undan tortib... yana uzoq, yana ko‘p yillar
Harsang bilan yotqizilgan necha ming dillar.
Ko‘z yoshidan, dil toshidan qurilgan haykal

Mag‘rur turar, mag‘rur boqar; hech biron mahal
Na olamdan, na zamondan qo‘rqmas asti u.
G‘azabini yutib olgan qullar dasti bu!
Qullar... (Menman u qullarning o‘lmas avlodi,
Mana menman, u qullarning hech so‘nmas yodi.
Mana menman, falaklarga lov-lov o‘t qo‘yib,
Otarim boshlaridan poydevor o‘yib,
Ozodligim obidasin qurgan insonman!
O‘sha jonman, o‘sha qonman va o‘sha shonman!)

Bundan shunday xulosa qilamizki, albata O‘zbekiston yoshlarimiz Usmon Nosir kabi haqiqiy adabiyot islohmanti bo‘lishdi. Ko‘p allomalar bizning O‘zbekistonimizdandur biz bundan faxirlansak arziydi. Usmon Nosir izdoshlarimiz. Biz albata Usmon Nosir kabi yetuk salohiyatli inson bo‘lib yetishamiz. Hammasi sekin astalik bilan bo‘ladi.

Foydalanilga adabiyotlar:

1. Usmom Nosir kitobi Kh-davron.uz electron sayti.
2. Adabiyot darsliklari 8-sinf qo'llanma G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa.171b
3. Tanlangan asarlar 2tomlik:-T:G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi,1960.